

## BORLIQ FALSAFASINING FUNDAMENTAL KATEGORIYASI

*Xo'jamqulova Dilnoza**Turaqulova Ruxshona Mirkomil**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Pedagogika fakulteti psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada borliq tushunchasining asosiy kategoriyalari. Borliq va yo'qlik tushunchalarining ta'rifi bundan tashqari falsafa haqida va borliq haqidagi olimlarning qarashlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Borliq, yo'qlik, ibtido, materiya, ontologiya, olam, neotomizm

**Абстрактный:** В данной статье рассмотрены основные категории понятия существования. Также поясняется определение понятий существования и несуществования по философии и взглядам учёных на существование.

**Ключевые слова:** Существование, небытие, происхождение, материя, онтология, вселенная, неотомизм.

**Abstract:** This article covers the main categories of the concept of being. The definition of the concepts of being and non-being, as well as the views of philosophers and scientists on being.

**Keywords:** Being, non-being, beginning, matter, ontology, universe, neothomism

Borliq tushunchasi ya'ni faylasuflar qadim zamonlardan buyon borliq va yo'qlik haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko'plab asarlar yozishgan. Xo'sh, borliq nima? Bu savol bir qarashda juda oddiy ko'ringani bilan unga shu chog'gacha barcha kishilarni birday qanoatlantiradigan javob topilgani yo'q. Bu holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, ayrim faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan bog'lab tushuntirishadi. Ularning nuqtai nazarlaricha, borliq – obyektiv realliknigina qamrab oluvchi tushunchadir. U holda fikr, inson tafakkuri, o'y-xayollarimiz borliq tushunchasidan chetda qolar ekanda, degan savolga ular, bunday tushunchalar obyektiv reallikning hosilasidir, deb javob berishadi. Falsafaning borliq haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismi — ontologiya deb ataladi. Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o'rganadi.

Yo'qlik xech nima demakdir. hamma narsani hech narsaga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo'qlikdir. Bu ma'noda yo'qlik cheksizlik, nihoyasizlik va mangulik bilan birdir. Yo'qlik chekingan joyda borliq paydo bo'ladi. Demak, borliqning bunyodkori ham, kushandasi ham yo'qlikdir. Borliq yo'qlikdan yo'qlikgacha bo'lgan mavjudlikdir. Yo'qlikni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Fanda yo'qlik nima, degan savolga javob yo'q. Borliq haqidagi konsepsiyalar. tarixdan ma'lumki, faylasuflar borliq haqida turlicha g'oyalarni ilgari surishgan. Markaziy Osiyo tuprog'ida vujudga kelgan zardushtiylilik ta'limotida borliq quyosh va olovning hosilasidir, alangalanib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil etadi, deb hisoblangan. Chunki bu g'oya bo'yicha, har qanday o'zgarish va harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik bahsh etadi.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot borliqni bilim bilan qiyoslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilsakgina bor bo'ladi, insonning bilimi qancha keng bo'lsa, u shuncha keng borliqni qamrab oladi, deb hisoblaydi. Aslida esa, borliq kategoriyasi umumiy abstraksiya bo'lib, mavjudlik belgisi bilan barcha narsa va hodisalarni o'ziga qamrab oluvchi o'ta keng tushunchadir. U o'ziga nafaqat obyektiv reallikni, balki subyektiv reallikni ham qamrab oladi. Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. Mavjudlik — borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Reallik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o'ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi. An'anaviy falsafiy qarashlarda borliqning uchta sohasi ajratib ko'rsatiladi. Ularga: tabiat borliki, jamiyat borliki, ong borliki kiradi. Bular uchun eng umumiy belgi, ularning mavjudligidir.

Borliq muammosi barcha falsafiy ta'limotlarda asosiy o'rin egallab kelgan. Bu bejiz emas, albatta. Kishilar azaldan voqelikni falsafiy nuqtai nazardan tushunishga intilib kelganlar. Borliq tushunchasi voqelikni falsafiy anglash uchun ishlatiladigan asosiy tushunchadir. Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan borliq tushunchasi sermazmun, ko'p qirrali bo'lib, voqelikdagi barcha narsa va hodisalar, jarayonlarni ifodalash, aks ettirish uchun ishlatiladi. Borliq tushunchasi yordamida kishilar o'z ongida dunyoning mavjudligi, uning cheksizligi, abadiyligi, yaxlit va bir butunligi haqida umumiy tasavvurga ega bo'ladilar. Borliqning asosiy shakllarini moddiy predmetlar, jarayonlar borlig'i, inson borlig'i, ijtimoiy borliq, ma'naviy borliq tashkil etadi.

Moddiy predmetlar borlig'i turkumiga tabiatdagi barcha narsalar, eng mayda zarrachalardan tortib yer, Quyosh, koinotgacha kiradi. Shuningdek, moddiy borliqga kishilar tomonidan yaratilgan «ikkinchi tabiat», ya'ni har xil moddiy ne'matlar (zavod, fabrika, binolar, turli mashina, mexanizmlar, asbob-uskunalar va h.k.) ham kiradi. Diniy ta'limotlarda olamning asosi, uning mohiyati ilohiy kuch, ruh bilan bog'lab qo'yiladi. Ilk borliq bu olamdagi barcha narsa va hodisalarni yaratuvchi Xudodir. Ilk borliq, ya'ni birinchi mavjud — Tangri Olloh barcha mavjudot borlig'ining birinchi sababidir deyiladi. «Ilk bor bo'lgan, (ya'ni Tangri) deydi Forobiy, o'zining asl mohiyati bilan boshqa barcha narsalardan farqlidir. Chunki u modda ham emasdur,

sub'ekt ham emasdur, uning suvrati ham bo'lmaydi, uning bir o'zi bu borliqda yakkayu yagonadir, u shu jihatdan ham birinchidir»<sup>1</sup>.

Gegel ta'limotiga ko'ra, olamdagi hamma narsalar va hodisalar «mutlaq g'oya»ning mahsulidir. Binobarin, olamni yaratuvchi shu g'oya undagi narsa va hodisalarning birligini ham belgilaydi, deyiladi idealistik ta'limotlarda. Shuningdek, boshqa diniy va falsafiy qarashlarda ham voqelikdagi barcha narsalar Xudo tomonidan yaratilgan deb tushuntiriladi. O'rta asr davrida ijod etgan xudojo'y faylasuf Akvinskiyning ta'limotiga asoslangan katolik cherkovining rasmiy falsafasi hisoblanuvchi hozirgi zamonda bir qator mamlakatlarda keng tarqalgan neotomizm falsafasining vakillari Mariten, Jilson (Frantsiya), de Reymeker (Belgiya), de Friz (Germaniya), Vetter (Avstriya), Boxenskiy va boshqalar ruhiy, ilohiy birinchi ibtido, deb tushuniladigan «sof borliq»ni oliy reallik, deb hisoblaydilar. Moddiy olam ikkilamchi va hosila, deb e'lon qilinadi. Neotomizm nazariyasining asosiy maqsadi xudoni borliqning bosh sababchisi va barcha falsafiy kategoriyalarning bosh asosi, deb e'tirof qilishdir.

Diniy falsafaning yana bir shakli bo'lgan personalizm (lot. persona — shaxs) oqimining vakillari B.P.Boun, R.T.Flyuelling, E.Sh.Braytmen (AQSh), X.U.Kerr (Angliya), V.Shtern (Germaniya) va ularning fikrdoshlari taraqqiyotning turli bosqichlarida turuvchi va olamni tashkil etuvchi «oliy shaxs» Xudo birlamchi reallik va oliy ruhiy qimmatdorlik, deb ta'kidlaydilar. Ular tashqi olam predmetlarini insonning ichki dunyosidan, uning sezgilari, idroklari va shu kabilardan hosil bo'lgan qandaydir narsa deb qaraydilar. «Chunki yuqorida ko'rsatilgan ob'ektlar, degan edi ingliz faylasufi Berkli, - biz sezgilarimiz vositasi bilan idrok etiladigan narsalar bo'lmay nima o'zi?» Xo'sh, biz o'z ideallarimizni, ya'ni sezgilarimizni idrok etmasdan nimani idrok etamiz?» Narsalarni, idrok etuvchi qismga bog'lanmasdan turib, ularning mutlaq mavjudligi to'g'risida so'zlash mumkinligini men mutlaqo tushunolmayman», deydi u. Berklining fikrini boshqa faylasuflar, jumladan Max, Avenarius ham qo'llab-quvvatlaydilar.

Jamiyatning moddiy texnika bazasi, iqtisodiy asoslari, siyosiy tashkilotlari: davlat va hokimiyat idoralari, armiya, politsiya, sud, prokuratura, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, maorif tizimi, madaniyat, fan va texnika, ilmiy tadqiqot institutlari va laboratoriyalar, ommaviy axborot vositalari, aloqa bo'limlari va hokazo ijtimoiy borliqning turli xil ko'rinishlarini tashkil etadi. Borliq faqat moddiy shakldagina emas ma'naviy, ruhiy shaklda ham namoyon bo'ladi. Ma'naviy borliqqa inson tomonidan yaratilgan rang-barang madaniyat va san'at asarlari, til, ilmiy kashfiyotlar, g'oyalar, axloq-odob qoidalari, falsafiy, estetik, badiiy, siyosiy, tafakkurlash madaniyati, ruhiy kechinmalar, diniy tasavvurlar tushunchalar va hokazolar majmui kiradi. Kishilarning

<sup>1</sup> Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri.-T.:“Xalq merosi”,1993.-131-bet.

ichki holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, ruhiy, ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va masalalari hamda kayfiyatlari ham ma'naviy borliqning ko'rinishlaridir.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, borliq voqelikda mavjud bo'lgan barcha narsa va hodisalar, inson, jamiyat, kishilarning ichki dunyosi, ma'naviyatini ifodalaydigan keng qamrovli va sermazmun falsafiy tushunchadir. Borliq shakllari (narsalar borlig'i, inson borlig'i, ijtimoiy borliq, ma'naviy borliq) bir butun dunyoning alohida ko'rinishidir. Borliq ana shu alohida shakllar o'rtasidagi bog'liqlikni, umumiylikni ko'rsatadi. Borliqning umumiy aloqadorligi alohida narsalarning mavjudligi bilan namoyon bo'ladi. Borliq tushunchasi. Faylasuflar qadim zamonlardan buyon «borliq» va «yo'qlik» haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko'plab asarlar yozishgan. Xo'sh, borliq nima? Bu savol bir qarashda juda oddiy ko'ringani bilan unga shu chog'gacha barcha kishilarni birday qanoatlantiradigan javob topilgani yo'q. Bu holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, ayrim faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan bog'lab tushuntirishadi. Ularning nuqtai nazarlaricha, borliq – obyektiv reallikningina qamrab oluvchi tushunchadir. U holda fikr, inson tafakkuri, o'y-xayollarimiz borliq tushunchasidan chetda qolar ekanda, degan savolga ular, bunday tushunchalar obyektiv reallikning hosilasidir, deb javob berishadi.

Falsafaning borliq haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismi — ontologiya deb ataladi. (Bu tushunchani falsafada birinchi bor X. Volf qo'llagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o'rganadi.

Yo'qlik xech nima demakdir. hamma narsani hech narsaga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo'qlikdir. Bu ma'noda yo'qlik cheksizlik, nihoyasizlik va mangulik bilan birdir. Yo'qlik chekingan joyda borliq paydo bo'ladi. Demak, borliqning bunyodkori ham, kushandasi ham yo'qlikdir. Borliq yo'qlikdan yo'qlikgacha bo'lgan mavjudlikdir. Yo'qlikni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Fanda yo'qlik nima, degan savolga javob yo'q.

Borliq haqidagi konsepsiyalar. Tarixdan ma'lumki, faylasuflar borliq haqida turlicha g'oyalarni ilgari surishgan. Markaziy Osiyo tuprog'ida vujudga kelgan zardushtiylik ta'limotida borliq quyosh va olovning hosilasidir, alanganib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil etadi, deb hisoblangan. Chunki bu g'oya bo'yicha, har qanday o'zgarish va harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik bahsh etadi. Borliqning asosiy yashash shakllariga fazo va vaqt kiradi. Fazo narsalarning ko'lamini, xajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

Ma'lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko'lamga, xajmga ega. Fazo — vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish

tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ruy beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko'p hollarda, forsiy til ta'sirida yozilgan adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy hususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma'nosida, vaqt esa hodisalar bo'lib o'tadigan muddat ma'nosida ishlatiladi.

Fazo va vaqtni tushunish bo'yicha substansial va relyasion yondashishlar mavjud. Substansial konsepsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo'shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o'ziga narsalarni sigdiruvchi substansiya. hech narsasi yo'q, ya'ni narsalar solinmagan fazo ham bo'lishi mumkin, deyiladi. Relyasion konsepsiya tarafdorlari esa, narsalar fazoviy o'lchamga ega, deyishadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Sher.Axloqshunoslik.Darslik. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010
2. Tulenov J., Tulenova G., Tulenov K. Falsafa. Darslik. – T.:Fan texnologiyalar, 2016.
3. Falsafa M. Axmedovaning taxriri ostida. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. - 496 b.
4. Falsafa. Q.Nazarovning taxriri ostida. - T.,2000.
5. Shermuxamedova N.A. Falsafa .-T.:Noshir, 2012.